



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

QORAQALPOQ
ZAMONAVIY
SHE'RIYATI
ANTOLOGİYASI



0X0000048127

37

821.512.121
K-59



QORAQALPOQ ZAMONAVIY SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI



TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOLIK
UNIVERSITETI
AXBOROT RESURS MARKAZI
№ 42191

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT — 2022

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton – hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchi:

Rustam Musurmon

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

QORAQALPOQ SHE'RIYATI GULDASTASI

Qo'lingizdagi ushbu yangi kitobga 2018-yili "Bilim" nashriyotida qoraqalpoq tilida chop etilgan "XX asr qoraqalpoq poeziyasi antologiyasi" I jildidan she'rlar, shuningdek, shoirlarning turli yillarda chop etilgan she'riy kitoblaridan eng yaxshi asarlar saralab olindi. O'z navbatida, antologiya XXI asrda ijod qilgan qoraqalpoq shoirlari she'rlari bilan to'ldirildi.

Ma'lumotlarga ko'ra: "Qoraqalpoq poeziyasi antologiyasi o'tgan asrning 1959-yili qoraqalpoq tilida, 1968-yili rus tilida, 1979-yili qozoq tilida bosmadan chiqqan"¹ ekan. Albatta, qoraqalpoq shoirlarining go'zal she'riy guldastalari va nasriy asarlarini ona tilimizga tarjima qilib, kitob holida chop etishni o'zbek adabiyoti kanda qilgan emas. O'zbek-qoraqalpoq tug'ishgan xalqlar adabiy aloqalari nihoyatda mustahkam, chambarchas bog'langan. Ustoz adiblarimizning do'stlik va ijodiy hamkorlik aloqalari bizga hamisha ibrat bo'lib kelgan. Sevimli ustozimiz Abdulla Oripov she'rlarida qoraqalpoq tug'ishganlarimizga o'z mehr-muhabbatini hamisha izhor etgan:

*Men o'zbek, sen esa qoraqalpoqsan,
Turklar dunyosida sen ham urvoqsan,
Gar men tuproq bo'lsam, sen ham tuproqsan,
O'zbekka azaliy qarindosh, inim.*

Ustoz Ibroyim Yusupov ham "Men Toshkentni sog'inaman ko'rmasam" deya azaliy qon-qardoshlikni kuylagan. Ular, nafaqat o'zbek va qoraqalpoq, balki butun turkiy xalqlarning ulug' shoiri sifatida dovrug' qozonishgan.

¹ "Poeziya guldastasi" maqolasidan, "XX asr qoraqalpoq poeziyasi antologiyasi", I jild, tuzuvchilar Kamol Palimbetov, Ziyoda Bekbergenova, Tozagul Bayniyazova, "Bilim" bosmasi, 2018-yil, 3-bet.

Qoraqalpoq adabiyoti namoyandalari ichida O‘zbekiston Qahramonlari, O‘zbekiston xalq shoirlari va yozuvchilari bor. Ne baxtki, qoraqalpoq xalqi ham o‘zbek adiblari orasidan eng munosiblarini shunday yuksak unvonlar bilan siylab kelgan.

Lekin qoraqalpoq adabiyotini nashr qilish va targ‘ib etishga shu paytgacha bugungi Yangi O‘zbekistonimizdagidek yuksak e‘tibor qaratilmagan.

Bunga misollar ko‘p, Toshkent shahrida bunyod etilgan so‘lim Adiblar xiyobonida qoraqalpoq adabiyotining uch ulug‘ namoyandasi — Berdaq, Ibroyim Yusupov va To‘lepbergen Qa-
ipbergenovga muhtasham haykallar qo‘yilganining o‘zidayoq naqadar teran mazmun, naqadar katta hurmat-ehtiramning yorqin timsoli mujassam.

Mana endi Prezidentimizning turkiy xalqlar, shuningdek, qoraqalpoq adabiyotiga yuksak e‘tibori sharofati bilan “Turkiy adabiyot xazinasi” 100 jildlik asarlar majmuasida qoraqalpoq adabiyoti bo‘yicha belgilangan beshta kitob qatorida “Qoraqalpoq zamonaviy she‘riyati antologiyasi” ilk bor o‘zbek tilida yirik va ko‘lamli darajada nashr etilmoqda. Antologiyaga kiritilgan barcha she‘rlar yangi tarjimalardan iborat.

Qoraqalpoq she‘riyati dovrug‘ini jahonga taratgan shoir Ibroyim Yusupov she‘riyatni osmonlarda porlab turgan yulduzga o‘xshatgan edi:

*“Insonlar o‘z dardin dardlashib yursin”, —
Deya Tangri senga bergandi tilsim,
Odamlar yulduzning tilin ne bilsin,
Sen bo‘lmasang, She‘riyatning yulduzi.*

Qoraqalpoq she‘riyatining yulduzlari ham osmondagi yulduzlardek bisyor, xilma-xil va serjilo. Antologiyani o‘qir ekansiz, turfa rang va xushbo‘y iforli she‘rlar sizni o‘ziga shaydo etadi. Kengliklar uzra charx urgan, daryo-yu ko‘llarda noz bilan suzgan qushlar navosi, dasht-u dalalarning noyob giyohlari, qancha yursang ham qadaming yetmaydigan, qancha boqsang ham nigohlaring ilg‘amaydigan bepoyon tekisliklar, eng muhimi, o‘sha muqaddas

zaminda yashayotgan xalq dil torlarining qo'ng'iroqdek bezovta jaranglari, oliyjanob, pok va samimiy tuyg'ulari, mehr-u muhabbati, dard-u armoni, orzu-umidlari badiiy ifoda topgan ushbu antologiyada.

Qoraqalpoq she'riyati sehrining zavq-u hayajoni aziz o'quvchilarga muborak bo'lsin, deb qolamiz.

She'riyat antologiyasi mutolaasi avvalida Qoraqalpog'iston xalq shoiri Muzaffar Ahmadning o'zbek va qoraqalpoq xalqining et va tirnoqdek ajralmasligini tasvirlagan "Juft qush" nomli she'rini birgalikda o'qisak...

Nukus — Mang'it yo'li...

Za'faron qumlar

Qo'sh o'rkach tuyaday cho'kmishlar vazmin.

Quyoshdan to'kilib o'tli to'lqinlar,

Otashin nafasda hansirar zamin.

Uzoq-uzoqlarda moziy Chilpig'i,

Dunyoga xotirjam boqib yotardi.

Yo'l bo'yida tinmay chug'ur chiq-chig'i,

Qushlar u yon- bu yon uchib o'tardi.

Bir savol xayolim chirmadi shu choq,

Tiriklik sirlarin qilguday taftish:

"Nechun bu makonda qushlar yurmas toq?

Ne sababdan bunday juft-u juft uchish?

Ucharlar ikkovlon, to'rtovlon, oltuv,

Juft uchmoqqa Xudo ont ichirganday,

Qushlar shuncha inoq, shunchalar totuv,

Bir-birin himoya qilib yurganday!

Savolga javobim topdim men shoyon,

Sinchiklab yurtimning sarhadlarini.

Bu qushlar shubhasiz qilur namoyon

Shu yerlik xalqlarning xislatlarini.

Allohning in'omi shu yurt, shu elim,
Ikki xalq yashaydi bunda juft, inoq.
Biri — mehmonnavoz mening o'zbekim,
Biri — do'stga sodiq, mard qoraqalpoq.

Bularni bo'laklab bo'lmaydi zinhor,
(Suyagin ajratmoq osonmi etning?!)
Har qoraqalpoqning bir o'zbeki bor,
Qoraqalpog'i bor har bir o'zbekning.

Ming yilki ikki xalq tutib bir makon,
Juft yurgan qushlarday yonma-yon yashar.
Bunday totuvlikni Hech ko'rdimikin
Parokanda dunyo, sargardon bashar?

Juft qushlar... Do'st qushlar...
Mamnun bo'laman
Namlanib ketguday ko'zim, qarog'im.
O'zbekim — o'zligim, doim bo'l omon,
Omon bo'l, tug'ishgan qoraqalpog'im.

... Qushlar parvoz qildi, charx urdi, yeldi,
Ta'zim qila-qila ona tuproqqa.
Juft uchgan qushlarni o'xshatgim keldi
Ikki do'st — o'zbek-u qoraqalpoqqa.

Rustam Musurmon,

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,
Qoraqalpog'iston xalq shoiri

AYAPBERGEN MUSAYEV

(1880–1936)

Ayapbergen Musayev 1880-yili Mo'ynoq tumanining Sho'rko'l ovulida tug'ilgan. U she'r yozish bilan birga xalq dostonlarini qissaxonlik bilan ijro qilib, qoraqalpoq dostonlarining ko'pchiligini yod bilgan va Sharq mumtoz she'riyati namoyandalari asarlarini xalqqa yetkazishda alohida o'rin tutgan. Shoirning ilk to'plami "Asarlar" degan nom bilan 1941-yili kitob holda nashr etilgan. Shundan keyin uning asarlari og'izdan og'izga o'tib, tarqalgan. Shoir asarlarini yozib olish va nashrga tayyorlashda N. A. Baskakov, T. Bekimbetov, X. Axmetov, T. Safiyev, O'. Kojurov, Q. Ayimbetov, N. Japaqov, M. Nurmammedov, Q. Bayniyazov va boshqalar ko'p xizmat qilgan. Uning she'rlari bir necha marta (1956, 1960, 1980-yillarda) to'ldirilgan holda nashr etilgan.

TA'RIF

Naryoq-beryoq bo'lib ikki son bo'lgan,
Bo'lim-bo'lim ellar qoraqalpoqdir.
G'ag'-g'ag' qilib o'rdak uchib, g'oz qo'ngan
Oydin-oydin ko'llar qoraqalpoqdir.

Chorvalari ko'chib, atov¹ joylagan,
Biya sog'ib, qator qulun boylagan,
Qulon-kiyiklari sakrab o'ynagan,
Qiya-qiya cho'llar qoraqalpoqdir.

Beklari bor tog'dan otin sakratgan,
Yo'ldosh tutgan belli-belli yigitdan,
Ot chopib, qush solib, tozi yugurtgan
Ulli-ulli beklar qoraqalpoqdir.

¹ Atov — orol.

MUNDARIJA

Qoraqalpoq she'riyati guldastasi. (<i>Rustam Musurmon</i>).....	3
Ayapbergen Musayev	7
Ta'rif	7
Qayda	9
Qozi Mavlik	11
Chimboy qasidasi.....	11
Yashargan ilhom.....	17
Qosim Avezov	18
Quyosh	18
Bahor keldi.....	19
Abbaz Dabilov	23
Yenggan yaxshi	23
Nomard yigit nega darkor?	25
Jirov siri	27
“Kelgandan so‘ng qoraqalpoq ..”	31
Sodiq Nurimbetov	34
Farzandim	34
Baxillarga.....	36
Vijdonim	38
Davlatyor Qosimov	39
Yangilik keldi.....	39
Yangi hayot	40
Izbosar Fozilov	42
Qora qo‘y	43
Ovulimni oralab yuribman.....	45

Amet Shomuratov	47
Yo‘q qilamiz.....	47
Ona.....	49
Til.....	49
Navro‘z Japaqov	51
Qoraqalpoq, o‘zbek birga tug‘ishgan.....	51
Olma.....	52
Yoz	53
Qora dengiz.....	54
Ortiq Shomuratov	57
Suluv	57
Ne yomon.....	58
Men hayotga tashnaman	59
Tilovbergen Jumamuratov	60
Amudaryo	60
Oltin meros.....	61
Gavhar yurak.....	62
Egizak og‘a-ini.....	62
Ezgu niyat tilakda	63
To‘rtliklar	64
Boyniyoz Qaipnazarov	68
Xalqimga.....	68
Men sening bir novdangman.....	69
Bo‘lsang	70
Xo‘jabek Seytov	71
Tug‘ishgan xalqimiz.....	71
Ado bo‘lmas dostoni	72